



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

O'QUVCHILARDA LIDERLIK VA JAMOADA ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Oslanova K.S. Jizzax viloyati Paxtakor tumani 9-sonli
maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi



Muqaddas dargoh – maktablarimiz ravnaqida biz xalqimiz, millatimizning yorugʻ kelajagini koʻramiz. Bugungi kunda oʻz oldimizga qoʻyotgan katta-katta maqsadlarga erishishning asosiy omili, bosh kalitini, avvalo, taʼlimda maktablarimizda deb bilamiz.

Sh.Mirziyoev

O'qituvchi — diktator emas, balki fasilitator. (yo'naltiruvchi)



Hech kimga sir emaski, zamon shiddat bilan o'zgarib, kechagi kungi kashfiyotlar bugungi kun uchun yangilik bo'lmay qolmoqda.

Bunday o'zgarishlar nafaqat boshqa sohalarda, balki ta'lim sohasida ham pedagoglardan o'z ustida doimiy ishlashni, zamon bilan hamnafas ish olib borishni, yangiliklardan doimiy xabardor bo'lib turishni talab qiladi. Pedagoglar, ayniqsa, ta'limda poydevor vazifasini bajaruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari yangidan-yangi g'oyalarni ishlab chiqib, o'z darslariga tatbiq qilib, o'quvchilar bilan birgalikda faol ish olib borsagina yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

21 ASR KO'NIKMALARI

O'rganish ko'nikmalari

**4K: (Critical Thinking,
Creativity & Innovation,
Collaboration,
Communication)**
tanqidiy fikrlash,
ijodkorlik va
innovatsiyalar, hamkorlik,
muloqot

Ilmiy savodxonlik ko'nikmalari

**IMT: (Information Literacy,
Media Literacy,
Technology Literacy)**
Axborot savodxonligi,
Media savodxonligi,
Texnologiya savodxonligi

Hayotiy ko'nikmalar

**FLIPS: (Flexibility and
Adaptability, Leadership and
Responsibility, Initiative and
Self-Direction, Social and
Cross-Cultural Interaction)**
Kirishuvchanlik va
Moslashuvchanlik,
Liderlik va Mas'uliyat,
Tashabbuskorlik va
o'z-o'zini boshqarish,
Samaradorlik va javobgarlik
Ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro
ta'sir

XXI asrning 4K modeli bugungi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan eng muhim bo'lgan ko'nikmalardan hisoblanadi.

JAMOADA ISHLASH

Bu ko'nikma o'quvchilar uchun juda muhim bo'lib, ularga muammolarni hal etish, birgalikda ishlash va yechim topish imkonini beradi.



Liderlik - bu jamoani boshqarish qobiliyati va haqiqiy dunyo muammolariga nisbatan samarali jamoani boshqarish qobiliyatidir. Bu ko'nikmalar bolaga qat'iyatlilik va mas'uliyat, o'ziga ishonch kabi asosiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga qanday yordam berishni va ta'lim olishdagi imkoniyatlarini qanday oshirishni o'rgatadi.

STRATEGIK REJALAR TUZISH VA MAQBUL YO'LLARINI IZLAB TOPISH





QAT'IYATLILIK VA MAS'ULIYAT,
O'ZIGA ISHONCH

**Liderlik tug'ma talant emas,
balki tarbiya va mashq
natijasidir.**



Liderlik ko'nikmalarini shakllantirish usullari

- ❖ **O'z-o'zini boshqarish:** O'quvchilarga kichik mas'uliyatlarni topshirish (sinf sardori, guruh yetakchisi).
- ❖ **Qaror qabul qilish:** Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim tanlashga o'rgatish.
- ❖ **Nutq so'zlash:** Taqdimotlar va munozaralar orqali o'z fikrini erkin bayon qilishni mashq qilish.

“JIMJITLIKDAGI TARTIB” (Eng tezkor liderni aniqlash)



Bu o‘yinda gapirish taqiqlanadi, shu sababli lider imo-
ishoralar bilan jamoani boshqarishiga to‘g‘ri keladi.

Vazifa: O‘quvchilarga hech qanday tovush chiqarmasdan,
ma’lum bir tartibda safga tizilish topshiriladi. Masalan: Bo‘y
uzunligi bo‘yicha, tug‘ilgan kun sanasi bo‘yicha yoki
ismlarning alifbo tartibi bo‘yicha.

Lider qanday aniqlanadi: Kim birinchi bo‘lib qo‘li bilan
“to‘xta” ishorasini qiladi, kim odamlarni joy-joyiga suradi va
tartibni tekshiradi — o‘sha o‘quvchi tashkilotchi liderdir.

“QOG‘OZLI MINORA” (Strategik liderni aniqlash)

Bu o‘yinda jamoaga cheklangan vaqt va resurs beriladi.

Vazifa: Jamoaga 10-15 ta A4 qog'oz va ozgina skotch beriladi. Ular 5 daqiqa ichida eng baland va yiqilmaydigan minora qurishlari kerak.

Lider qanday aniqlanadi:

- * **G‘oyalar lideri:** Birinchi bo‘lib qog‘ozni qanday buklash rejasini aytadi.

- * **Ijrochi lider:** Ishni taqsimlaydi ("Sen qog‘ozni bukla, sen skotchni kes").

- * Kim guruh ichidagi tartibsizlikni to‘xtatib, hammani umumiy maqsadga yo'naltirsa, **u haqiqiy lider.**



"TUSHUNARSIZ TOPSHIRIQ" (Kommunikator lider)

Bu o'yin liderning bosim ostida qanchalik aniq ko'rsatma bera olishini ko'rsatadi.

Vazifa: Bir o'quvchiga murakkabroq rasm ko'rsatiladi (masalan, bir-biriga tutashgan geometrik shakllar). U doskaga orqa o'girib turadi va sinfdoshlariga rasmni ko'rsatmasdan, nima chizish kerakligini tushuntiradi.

Lider qanday aniqlanadi: Agar u hamma uchun tushunarli tilda, xotirjam va aniq (metodik) tushuntira olsa, **demak u yo'riqchi lider.**



"OMON QOLISH UCHUN 5 TA BUYUM" (Diplomat lider)

Bu o'yin sinfdagi eng nufuzli, ya'ni gapiga boshqalarni ko'ndira oladigan liderni aniqlaydi.

Vazifa: Sinf kichik guruhlariga bo'linadi. Ularga ro'yxat beriladi (masalan: suv, xarita, pichoq, kitob, oyna, dori, arqon va h.k.). Ular kimsasiz orolda omon qolish uchun faqat 5 tasini tanlashlari kerak.

Lider qanday aniqlanadi: Guruhda hamma har xil narsani xohlaydi. Kim hamma bilan kelishib, argumentlar keltirib, umumiy to'xtamga kelishni ta'minlasa — u diplomat lider.

Kuzatuvchi (O'qituvchi) uchun checklist:

O'yin davomida quyidagi o'quvchilarga e'tibor bering:

- * **Tashabbuskor:** “Kelinglar, bunday qilamiz!” deb birinchi gapirgan.
- * **Strateg:** Ishni boshlashdan oldin reja tuzishni taklif qilgan.
- * **Hakam:** Guruh ichidagi janjal yoki kelishmovchilikni to'xtatgan.



JAMOADA ISHLASHNING 5 TA USTUNI



JAMOAVIY ISH SAMARALI BO'LISHI UCHUN QUYIDAGILAR ZARUR:

- 1.Umumiy maqsad:** Hamma nima uchun harakat qilayotganini bilishi kerak.
- 2. Ishonch:** Jamoa a'zolari bir-biriga tayanishi.
- 3.Muloqot:** Fikir almashish madaniyati.
- 4.Mas'uliyat:** Har bir a'zoning o'z vazifasi bo'lishi.
- 5.Qo'llab-quvvatlash:** Bir-biriga yordam berish.



NIMA UCHUN KERAK?

Bu metodlar o'quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to'plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

INNOVATSION YECHIMLAR

Ta'lim muassasalarida liderlik qobiliyatli bolalarni yoshligidan aniqlab, to'g'ri yo'lni ko'rsata olishimiz lozim. Boshqaruv ko'nikmalari — insonlarni, tashkilotlarni, kompaniyalarni boshqarishda shaxsiy yetuklikni ta'minlaydi.

ISHTIROKCHILAR O'TILGAN MASHG'ULOT BO'YICHA
FIKR-MULOHAZA BILDIRISHADI



FEEDBACK



E'TIBORINGIZ

UCHUN

RAHMAT!